

Oila va nikoh muqaddas birlik

2018-yil 21 - dekabrda institutning 1 - ma'ruzalar zalida (QXET, YERB, GTQ, KXM fakultetlarining talabalari) "Erta nikoh va oiladagi ajrimlarning oldini olish" mavzusida umumiy yig'ilish bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani FHDYO bo'limining katta inspektori G.Yuldasheva qatnashib, talaba qizlarga erda nikoh va ajrimlarning oldini olish bo'yicha ma'ruza qildi. Hozirgi kunda sodir etilayotgan yosh oilalar o'rtasidagi ajrimlar, qaynona bilan kelinlar o'rtasidagi kelishmovchiklar natijasida ajrimlar soni oshib borayotganligi to'g'risida ma'lumotlar berib o'tdi. Shundan so'ng talaba qizlar o'zlarining qiziqtirgan savollariga hayotiy misollar tarzida javoblar olishdi.



Institut xotin-qizlar qo'mitasining raisi Z.Xafizova axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov